



## NAVOIYGACHA BO‘LGAN TURKIY ADABIYOTDA

### HAMD MAVZUSINING BADIY TALQINI.

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi*

*Karimova Nilufar Majidovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Navoiygacha bo‘lgan turkiy adabiyotda hamd mavzusining badiy talqini haqida so‘z boradi. Shariat va tariqatning komil jamiyat qurish hamda komil inson tarbiyasi uchun bir-birini taqozo etadigan tadrijiy, uzviy, uzluksiz bosqichli mantiqiy jarayondan iborat ekanligini asoslab borish, ulug‘ shoir hamd g‘azallarini birlashtirib turuvchi umumiyligini g‘oyadir.

**Kalit so‘zlar:** Hamd, tawhid, behisht, g‘azal, “Avesto”, “G‘iyos ul-lug‘ot”, munojot, “Qutadg‘u bilig”.

**Abstract:** This article focuses on Turkish literature before Navoi it is about the artistic interpretation of the subject of praise. Arguing that Shariah and Tariqat consist of a gradual, organic, continuous logical process that requires each other for building a perfect society and perfect human education is the general idea that unites the praise ghazals of the great poet.

**Key words:** Hamd, tawhid, heaven, ghazal, "Avesta", "Ghiyos ul-lugot", prayer, "Qutadgu bilig".

Hamd–islomiy, shar’iy tushuncha bo‘lib, Ollohgaga madh, maqtov degan ma’nolarni anglatadi. Hamd so‘zining lug‘aviy ma’nosi haqida “G‘iyos ul-lug‘ot” da shunday fikr mavjud: “Hamd–sutudan va sitoish va ba istilohi xos bayoni kibriyo va jalol va azamati Haq subhonahu taoloro go‘yand; va ba’ze az muhaqqiqin chunin navishtaand, ki hamd dar lug‘at sano kardan ast ba zabon bar



xubii ixtiyorii kase baroi ta'zimi vay, chunonchi go'y<sup>1</sup>. (Mazmuni: Hamd—xoslar istilohida Haq subhonahu taoloning buyukligi, azimu azamatini ulug'lash, maqtashga aytadilar. Ba'zi tadqiqotchilar (lug'atshunoslar) hamdga quyidagicha talqin bergenlar: Hamd (lug'atda) tilda, ixtiyoriy ravishda birovning yaxshiligini maqtashdir. Yoxud uni ulug'lash, unga ta'zim bajo keltirish ham deyish mumkin).

Adabiy tur va janrlar nazariyasiga oid “Diniy va tasavvufiy turk adabiyoti”da esa hamd “lug'aviy ma'noda yolvorish, quloqqa so'zlash, Ollohga duo aylash mavzuidagi manzuma, she'r ma'nolarida ishlatiladi, deb ko'rsatiladi”<sup>2</sup>.

XV asr birinchi yarmida ijod qilgan she'rshunos Shayx Ahmad Taroziy bevosita Olloh hamdiga bag'ishlangan asarlar tavhid va munojot deyilishini ta'kidlaydi: “.. agar tengri azza va jallag'a hamd etsalar, oni tavhid derlar. Agar Tengri hazratinda tazarru' qilsalar, munojot o'qurlar”<sup>3</sup>

Ko'rinadiki, ko'chirilgan parchalarda hamd so'zining ma'nosi bir-biriga yaqin va ayni paytda bir-birini to'ldiradi. Hamd tushunchasining o'ziga xos jihatlari, tarixi borasida yana talay ilmiy ishlarda turlicha ta'riflarga duch kelamizki, ularning mazmun-mohiyati yuqorida keltirilgan mulohazalarga uyg'undir<sup>4</sup> . Demak, Olloh taoloning qudrati azimati ulug'lanib, ism – sifatlari madh etilgan asarlar hamdlardir. Islomgacha ham hamdlar mavjud bo'lган. Qadimgi greklarning xudolar madh etgan gimnlari, hind vedalari, “Avesto”dagi gohlar– Zardushtning beshlik qo'shiqlari, johiliyat arablarining Lot, Uzo kabi ilohlar ulug'langan asarlari ham hamdlar sirasiga kiradi. Jumladan, “Avesto”da “Ahunavayti goso”,

<sup>1</sup> Muhammad /iyosiddin. /iyos ul-lug'at. Jildi 2. -Dushanbe: Adib, 1988, 283-sah.

<sup>2</sup> Abdurahmon Guzel. Dini – tasavvufi turk edebiyati (sanasiz). Anqara. 83-sah.

<sup>3</sup> Taroziy Shayx Ahmad ibn Xudoydod. Funun ul-balog'a, nashrga tayyorlovchi A.Hayitmetov.-Toshkent: Xazina, 1996-yil, 32-34-betlar

<sup>4</sup> Navoiy asarlari lug'ati. Tuzuvchilar: P.SHamisiyev, S.Ibrohimov. - Toshkent: Adabiyot va san'at, 1972, 273-bet.



“Avushnavayti goso”, “Sipantmiynu goso”, “Vahuxshashar goso”, “Vahiysh gosolar” Zardushtning Axuramazda ta’rifiga bag’ishlab aytgan hamdlaridir: «Ey Mazda! Ey, ulviy olamning urug‘i - asosi - bunyodi! Ezgu niyat va Ashah-Haqiqat bilan huzurimizga kel, haqqoniy kalomlar vositasida Zardushtga va jamiyki solih insonlarga saodatli tiriklik baxsh ayla!»<sup>5</sup>.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, ko‘plab Sharq tillarida bu nom “Uxra Mazd”, “Xurmazd”, “Uramazd”, “Ahuroy Mazd”, fors tilida “Ahura Mazda”, “Hurmuzd” shaklida qo‘llaniladi. Zardushtning (“Avesto”da) beshlik goh (qo‘sinq)larida esa bu nom quyidagi uch holatda zikr etiladi: “Axura”, “Mazda”, “Mazda Ahura”. Ahura Mazda ikki juz’dan “Ahura” va “Mazdah”dan tarkib topgan<sup>6</sup>. Qadimgi hind asotiriyligi kitobi “Prahjo - patiy” ham “Zarvon” ismli Xudolar otasiga bag’ishlangan hamd bilan boshlanadi va mazkur manbada e’tirof etilishicha, Zarvon (“Borliqning Yaratguvchisi”) yakkatanho bo‘lgan emas. U o‘z qudrati bilan yana ko‘plab xudolar va devlar (“brahma”, “diva”, asura)ni yaratgan emish<sup>7</sup>.

“Avesto”dagi “Hurmuzd yasht” (hamd) qasidasida esa Ahura Mazdaning jami ismlari zikr qilingan. Unda aytlishicha, Ahura Mazdaning 72 nomini to‘kis zikr etish vositasida iblis, devlardan xalos bo‘lish mumkin emish. Eslatish joizki, barcha dinlarda ham Iloh ismlarining rang-barangligi va uni bot-bot yod etish eng afzal amallardan biridir. Chunonchi, “Avesto”da Axura Mazda “Dono Sarvar”, “Hushyor Yaratguvchi”, “Farmon berguvchi”, “Solor” kabi sifatlar bilan ta’riflangan.

<sup>5</sup> Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. –Toshkent: Sharq, 2001, 20-bet.

<sup>6</sup> Pugachenkova G.A., Rempel’ L.I. Istorija iskusstva drevnego vostoka. -Moskva: Nauka, 1968, 26-str

<sup>7</sup> Pamyatniki mirovogo iskusstva. Iskusstvo drevnego vostoka. -Moskva: Nauka, 1968, 26-str



Islomdagi Ollohnning 99 ismi (“Al-asma’ al-husna”) ham yuqoridagi fikrning yorqin namunasidir. “Avesto”da quyosh xudosi Mitraga bag‘ishlangan qasida ham bor:

Va bu aravani eltadur  
  
To‘rt oppoq tulpor.  
  
Abadiy va uchqur arg‘umoq  
  
Ruhi bilan o‘sgan jonvorlar.  
  
Old tuyog‘i tillodan uning,  
  
Ort tuyog‘i kumushdan uning.  
  
Va yagona bo‘yinturuqqa  
  
Bog‘langandir to‘rtalovi ham,  
  
Mutsahkamdir toza shotisi,  
  
Ilgaklidir va chidamlidir.

G. A. Pugachenkova va L. I. Rempel’ kabi tarixchi olimlarning aniqlashicha, Amudaryordan topilgan. Eramizdan avvalgi V-IV asrlarga tegishli xazinada xuddi mana shu so‘zlarning illyustratsiyasini ko‘rish mumkin. Unda to‘rtta otga qo‘shilgan aravacha ustidagi ikkita odam siymosi oltin haykalcha tarzida ishlangan. Bu jarayon ahmoniylar davrida ham davom etgan. “Qadimgi Sharq san’ati” kitobidagi ma’lumotlarga ko‘ra, eramizdan avvalgi VIII-VII asrlarga taalluqli “Boshida echki ko‘targan xudo” bronza haykalchada odamlarga o‘z tuhfalarini tortiq qilayotgan hosildorchilik va chorvachilik xudosi tasvirlangan.

G. A. Pugachenkovning yozishicha, eramizning birinchi asrlarida O‘rta Osiyoda ona-zamin bilan bog‘liq tangrilar obrazini ifodalash san’atda avvalgiday davom etgan. Arxeologik qazilmalar jarayonida Xorazm, Baqtriya va qadimgi



So‘g‘diyona yerlarida Kushan podsholari siymosi zarb etilgan tangalar qatori juda ko‘plab ayol timsollaridagi xudolarning sopol haykalchalari topilgan. Qanotli farishta obrazi keyinchalik Sharq poeziyasi va san’atida soflik, muhabbat va go‘zallikning o‘lmas, adabiy timsoliga aylanib qolgan. Mazkur ma’lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, islomgacha ham xalq o‘z tasavvuridagi ilohlarga hamd, madh aytgan. Diniy tasavvurlar, afsonaviy rivoyatlar, falsafiy tushunchalar, axloqiy-estetik qarashlar odamlarning moddiy hayat tarzi va faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

Shuning uchun qadimgi ajdodlarimiz “boshida echki ko‘targan xudo”larga, “qanotli farishta”laru ayol timsollaridagi ilohlarga sig‘inganlar. Masalan, ba’zi tarixiy manbalarda yozilishicha, So‘g‘diyona tangrisi tabiatning hayotbaxsh kuchlarini ifodalagan. U “Avesto” bilan bog‘liq Anahita, Ashah va Xayrvatat singari xudolarning yig‘ma, keyinchalik turli mahalliy sharoitlarga moslashtirib gavdalantirilgan ko‘rinishidir. Muhammad alayhissalom islomni ochiq targ‘ib qila boshlaganlarida but, sanam, oy, quyosh, tarixiy yo afsonaviy mavjudotlarga topinuvchilar o‘z tasavvur doirasidan chiqolmay, “Sen si g‘inishimizni da’vat etayotgan Ollohning nimaga o‘xshashini ayt” deb talab qilishgan. Bunga javoban, “Ixlos” surasi, “Laysa kamislihi shay’-un” va boshqa shu mazmundagi oyatlar nozil bo‘lgan. Aqidayi islomiyaga muvofiq, Alloh taoloning zoti jism kabi hajmga ega emas. Uning zoti javhar sifatlari bilan ham sifatlanmaydi. Chunki Olloh shakl bilan ham, rang bilan ham, alam chekish va lazzatlanish bilan ham sifatlanmaydi. Uning o‘xhashi ham, sherigi ham, tengi ham, muxolifi ham yo‘q, qiladigan ishlari ham maxluqotlaridan birontasining ishlariga o‘xshamaydi. Chunki Alloh taolo o‘z yaratiqlarini bevosita va feasbob amalga oshiradi. Zero, Allohning hukmi shuki, biror narsani qilishni iroda qilsa, unga “Bo‘l deydi va u narsa bo‘laveradi”.

Tafakkur chuqurlashgani sayin inson o‘zining yagona ilohiy qudrat oldidagi ojizligini teranroq his qila boshlaydi va har bir ishni boshlashdan oldin



Xudodan madad so‘raydi. Bu samimi tuyg‘u badiiy tafakkurda ham o‘ziga xos tarzda aks etgan. Har bir asarni xoh u ilmiy risola bo‘lsin, xoh doston, Olloh taolo hamdi bilan boshlash musulmon sharqining azaliy an’anasi hisoblangan. Mumtoz adabiyotimiz namoyandalari ham ana shu udumga izchil amal qilib kelganlar. Bu an’ananing, ya’ni islomiy hamdlarning ildizi esa islomiy aqidalarning barqarorlashish davriga borib taqaladi. Sharq mumtoz adabiyotining kirish hamdlari va hamd yo‘nalishidagi asarlarning tayanch g‘oyaviy manbai islomiy e’tiqodning asoslari Qur’oni Karim, Hadisi sharif va ilmi aqoiddir.

Birinchi turkiy doston—“Qutadg‘u bilig” ham 32 baytli hamd bobি bilan boshlanadi:

Ug‘an bir bayat-ul qamug‘din uze,  
O‘kush hamdu o‘g‘di anar-oq saze.  
  
Ulug‘lug‘ idisi ug‘an zuljalal,  
Yaratqan to‘rutken ma kadir kamal<sup>8</sup>.

Yusuf Xos Hojib yuqoridagi baytlarda qodir Xudoning barchadan ustunligiyu behisob hamdu sanolar faqat Ungagina sazovorligini, Uning Yaratuvchi, bino qiluvchi, zuljalol (azamat va eng buyuk) kabi sifatlarini ulug‘laydi. Shoir “Xoliq borligi uchun belgi yaratdi. Yaratgan har ikki narsasida vohidning (belgisi) aniqdir”, -deya Haq ma’rifatini nazarda tutadi. Kuzatgan manbalarga asoslanib aytishimiz mumkinki, kirish hamdlar singari devondagi birinchi g‘azalni hamd ruhida yozish ham turkiy adabiyotda izchil an’ana edi. Hofiz Xorazmiy, Atoyi kabi turkiy adabiyot namoyandalarining devoni xuddi shu an’anaga muvofiq yaratilgan. Hofiz Xorazmiyning devoni 14 baytli hamd va mav’iza yo‘nalishidagi g‘azal bilan boshlanadi:

<sup>8</sup> Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig”. -Toshkent: Fan, 1971, 51-65-bet.



Yaratqan bori qilg‘ali jahonni yo‘qdin paydo,

Jamolu husnina barchani qildi oshiqu shaydo<sup>9</sup>.

Baytning mazmunini shunday izohlash mumkin: “Yaratqan bori”— Ollohnning butun jahonni yaratishdan maqsadi jamolu husniga barchani oshiqu shaydo etish, o‘z husnini ko‘z-ko‘z qilishdir. Shoir mashhur hadisi qudsiy (“Kuntu kanzan”)ga asoslanib o‘z qarashlarini tasavvufiy ruhda ifodalagan. G‘azalning keyingi baytlarida lirik qahramon – shoir kofiru musulmon, tarsoyu yahudiy, mo‘minu muvahhid – barchasi xudoning dargohida teng–qul ekanligini ta’kidlar ekan, Ollohga eltuvchi yo‘llar xilma-xil bo‘lgani bilan yagona mohiyatga borib taqalishini uqtiradi, sidqidil imonni ulug‘laydi:

Behisht ichra agar bo‘lmasa yodi, qa’ri do‘zaxdur,

Aning yodi bila do‘zax erur chun jannati a’lo.

Haqiqiy musulmon uchun imon lazzati barcha narsadan ustundir. Imon esa ko‘ngilda bo‘ladi. Shoir ta’biricha, agar jannatda yashasangu qalbingda Ollohnning yodi bo‘lmasa, u joy do‘zaxdir. Do‘zaxda yashab, qalbing Uning yodi bilan taskin topsa, u yer jannati a’lodir. Mazkur baytdagi mantiqni shoir tazod va tardu aks san’ati orqali ta’sirchan ifodalagan. G‘azalning keyingi baytlari mav’iza ruhida berilgan:

Tilar bo‘lsang haqiqat mulkida sardor bo‘lmoqlik,

Alif yanglig‘ bo‘la ko‘rgil muhabbat lavhida yakto.

Mashhur lirik shoir Atoyining devoni ham hamd va diniy-falsafiy qarashlar ifodalangan (11 baytli) g‘azal bilan boshlanadi:

<sup>9</sup> Хоразмий Ҳофиз. Девон.-Тошкент: Ўзбекистон, 1981, 8-бет.



Eyki xo‘blar ko‘zgusinda o‘zin izhor aylagan,

Ham o‘zi ul ko‘zguga boqib meni zor aylagan<sup>10</sup>.

“Xo‘blar ko‘zgusi” – istioraviy ibora bo‘lib, baytda pok ko‘ngil ma’nosida ishlatilgan. Xo‘blar–tasavvufiy ma’noda ma’rifat ahli va irfon zuhur etgan komillar. Ko‘ngil – Olloh ilmi va ishqining xazinasi. Atoyining e’tiroficha, Olloh o‘zining g‘aybiy sirlarini “xo‘blar ko‘zgusinda” izhor etadi. “Xo‘blar ko‘zgusinda” Uning pinhonu nihon sirlari hamisha ayon. Ko‘ngil ko‘zgusida intihosiz nurlar zuhurini his etgan kishi shu sir asrorga “zor” bo‘ladi. Zorlik esa – oshiqlik, botiniy ilohiy ma’rifatga oshiqlik – bu kamolot yo‘lidir. Atoyi ijodi bo‘yicha maxsus tadqiqot olib borgan adabiyotshunos S. Rafiddinov devondagi birinchi g‘azal xususida shunday fikr bildiradi: “Odatda XV asr qo‘lyozmalarida “hamd”dan keyin “na’t” uchraydi, Atoyi devoni qo‘lyozmasida esa “hamd”dan keyin navbatdagi alohida “na’t” xususiyatiga ega bo‘lgan g‘azal kelmaydi. Biroq, o‘scha birinchi g‘azalda:

Laylat ul me’roj qoshinda iki yo kelturub,

“Qoba qavsayn” ittihodidin xabardor aylagan.

Qil Atoyining yuzin oli abo husnidin ol,

Ey Muhammadni iki olamda muxtor aylagan, -kabi “na’t” ruhidagi baytlar mavjud”<sup>11</sup>. Biz esa bu baytlarni hamd ruhida yozilgan, deyish taraf dorimiz. Na’t – payg’ambarni madh etish, yaxshi sifatlarini aytib maqtash. Dalil uchun bayt keltiramiz:

O‘zin o‘zlukdinu kavnayn mulkidin qilib xorij,

<sup>10</sup> Devoni. Shayxzoda Atoyi.-Toshkent, 1991, 6-bet.

<sup>11</sup> Rafiddinov S. Majoz va haqiqat (Atoyining poetik mahorati). -Toshkent: Fan, 1995, 19-bet.



Qayu kavnayn mulki, lomakondin ham topib ixroj<sup>12</sup>.

Bayt Alisher Navoiy qalamiga mansub bo‘lib, bunda me’roj tunida payg’ambarimizning o‘zlikdan butunlay qutulib, shu yuksak ruhiy darajaga yetganliklari qalamga olinadi. Atoyidan keltirilgan parchada esa Xudoning mo‘jizaviy qudrati ulug‘langan. Ya’ni shoir ta’biri bilan aytganda, Muhammad pay g‘ambarni “laylat–ul me’roj qoshinda iki yo kelturub, qoba qavsayn ittihodidin ” Olloh “xabardor aylagan, “Muhammadni iki olamda muxtor aylagan” ham o‘zi. Bu mo‘jizalarning sababchisi Vujudi Mutlaq. Islomiy aqidaga ko‘ra ham, pay g‘ambarlar vositasida sodir bo‘lgan ilohiy mo‘jizalar Alloh taoloning irodasi bilan sodir bo‘lgan. “Islom aqoidiga doir javohir so‘zlar” kitobida ham bu xususda: “Pay g‘ambarlarning qadrlari qanchalik baland va ishlari ulug‘ bo‘lmasin, agar Alloh xohlamasa, ular biror manfaat keltirishdan yoki biror zararni daf etishdan ojizdirlar”<sup>13</sup>, deyiladi. Yuqorida keltirilgan baytlar esa payg‘ambarga berilgan ilohiy mo‘jizalarning sababchisi – Olloh hamdiga bag‘ishlangan. Mazkur misollarga asoslanib aytish mumkinki, devonni hamd g‘azal bilan boshlash Alisher Navoigacha ham mavjud an’ana edi. Ammo har harf turkumining dastlabkilari yoki dastlabkisini hamd g‘azal ruhida yozish va devonni shu asosda tartib berish hodisasi turkiy adabiyotda Navoigacha bo‘lgan biror ijodkor devonida ko‘zga tashlanmaydi

Shariat va tariqatning komil jamiyat qurish hamda komil inson tarbiyasi uchun bir-birini taqozo etadigan tadrijiy, uzviy, uzlucksiz bosqichli mantiqiy jarayondan iborat ekanligini asoslab borish, ulug‘ shoir hamd g‘azallarini birlashtirib turuvchi umumiyl g‘oyadir.

<sup>12</sup> Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to’plami. 20 tomlig. 4-tom. Navodir ush-shabob. -Toshkent: Fan,

<sup>13</sup> Islom aqoidiga doir javohir so‘zlar. –Тошкент : Мовароуннаҳр, 2002, 61-бет



Foydalanilgan adabiyotlar ro ‘yxati:

1. Muhammad G‘iyosiddin. “G‘iyos ul-lug’at”. Jildi 2. -Dushanbe: Adib, 1988, 283-sah.
2. Abdurahmon Guzel. Dini – tasavvufi turk edebiyati (sanasiz). Anqara. 83-sah.
- 3 Taroziy Shayx Ahmad ibn Xudoydod. Funun ul-balogs’ha, nashrga tayyorlovchi A.Hayitmetov.-Toshkent: Xazina, 1996-yil, 32-34-betlar
4. Navoiy asarlari lug’ati. Tuzuvchilar: P.SHamisiyev, S.Ibrohimov. - Toshkent: Adabiyot va san’at, 1972, 273-bet.
5. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. -Toshkent: Sharq, 2001, 20-bet.
6. Pugachenkova G.A., Rempel’ L.I. Istorija iskusstva Uzbekistana. -Moskva: Nauka, 1969, 72-str.
7. Pamyatniki mirovogo iskusstva. Iskusstvo drevnego vostoka. -Moskva: Nauka, 1968, 26-str
8. Yusuf Xos Hojib. “Qutadg’u bilig”.-Toshkent: Fan, 1971, 51-65-bet.
9. Хоразмий Ҳофиз. Девон.-Тошкент: Ўзбекистон, 1981, 8-бет.
10. Devoni. Shayxzoda Atoyi.-Toshkent, 1991, 6-bet.
11. Rafiddinov S. Majoz va haqiqat (Atoyining poetik mahorati). -Toshkent: Fan, 1995, 19-bet.
12. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to’plami. 20 tomlik. 4-tom. Navodir ush-shabob. -Toshkent: Fan,
13. Islom aqidiga doir javohir so‘zlar. -Тошкент : Мовароуннахр, 2002, 61-бет
14. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to’plami. 20 tomlik. 4-tom. Navodir ush-shabob. -Toshkent: Fan,